Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

UDK 9.435

SURXON VOHASINING IJTIMOIY, IQTISODIY VA MADANIY JARAYONLAR TARIXSHUNOSLIGI (1925 – 1941 – yillari)

Isaev Oybek Axmed o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti
Tarix va uni o'qitish metodikasi
kafedrasi mudiri. (PhD)., v.v.b., dotsent
E-mail: aisayev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxon vohasining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlari tarixiga bag'ishlangan bo'lib, unda 1925 – 1941-yillar Surxon vohasida Sovet davri siyosatining aholining ijtimoiy turmush hayotida ta'lim, sog'liqni saqlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni, shuningdek, vohaning iqtisodiy hayotida asosiy o'ringa ega bo'lgan sanoat tarmoqlari, sovxozlar va kolxozlarda aholining faoliyati tarixshunosligi aks etgan. Madaniy soha vakillarinng faoliyatida sovet mafkurasining aholi hayotida sezilarli salbiy oqibatlarini tarixiy xolislik, tarixiy ketma-ketlik metodlari asosida ochib berishga qaratilgan. Tarixiy jarayon tahlil qilinib, bu davr oralig'ida Surxon vohasi aholisi murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy davrni o'z boshidan kechirgan edi. Sovet davlati voha iqtisodiyotini tiklashda eng avvalo, qishloq xo'jaligiga e'tibor qaratdi. Rejalashtirilayotgan sovet siyosati zo'ravonlikka asoslangan bo'lib, aholini sinflarga bo'lish g'oyasini ishlab chiqildi. Unga ko'ra, mamlakatda "quloq", "boy", "ruhoniy", "ziyoli", "kambag'al", "batrak" kabi yangi iboralar paydo bo'ldi. Surxon vohasida aholi sog'ligini saqlash maqsadida sovet hukumati bir qancha amaliy ishlarni olib bordi. Lekin, vohada tashkil etilgan shifoxonalar, ambulatoriyalar soni yetarli emas edi. Shuning bilan birga, tibbiyot maskanlaridagi holat achinarli holatda bo'lib, mamlakatdagi moliyaviy ahvol tufayli ularning moddiy-texnikaviy bazasi juda past ekanligi haqiqatga aylandi. Bu davrda vohada madaniy-ma'rifiy maskanlar tashkil qilishga katta e'tibor qaratildi. Bular – klublar, qizil choyxonalar, teatrlar, muzeylar, agitpunktlar, kutubxonalar va boshqa maskanlar bo'lib, ularda zamonaviy madaniyat targ'ib qilindi. Shu bilan birga, madaniy-ma'rifiy muassasalarni tashkil etishda sovet davlatining g'oyaviy-mafkuraviy maqsadlari asosiy o'ringa qo'yildi. Ulardan asosan "sotsialistik" madaniyatni keng yoyishda foydalanilganligiga guvoh bo'lamiz. Xulosa o'rnida 1925–1941-yillarda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixshunosligi asosida sobiq ittifoq davri hayotini tadqiq qilishdan iborat.

Kalit so'zlar. Surxon, voha, sovet, hokimyat, yyer-suv, "Xaudak", "Uchqizil", neft, konlar, Jarqo'rg'on, Angor, tuman, qishloq, xo'jaligi, shirkat, kambag'al.

ИСТОРИЧНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ, ЭКОНОМИЧЕСКИХ И КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА (1925 - 1941 - г.)

Аннотация: Данная статья посвящена истории социальных, экономических и культурных процессов Сурханского оазиса, в которых отражена политика советской эпохи в Сурханском оазисе 1925-1941 годов, образование, здравоохранение, роль женщин и девушек в обществе. В общественной жизни населения отражается также деятельность населения в совхозах и колхозах, имеющих ключевое место в экономической жизни оазиса. В

деятельности представителей сферы культуры направлено на выявление существенных негативных последствий советской идеологии в жизни населения на основе методов исторической объективности и исторической последовательности. Проанализировав исторический процесс, можно сказать, что в этот период жители Сурханского оазиса переживали сложный политический, социально-экономический период. Советское государство, восстанавливая экономику оазиса, в первую очередь обращало внимание на сельское хозяйство. Планируемая советская политика основывалась на насилии, развивалась идея разделения населения на классы. По его словам, в стране появились новые выражения, такие как "кулак", "богатый", "священник", "интеллигент", "бедняк", "батрак". В целях сохранения здоровья населения Сурханского оазиса советское правительство провело ряд практических работ. Однако количество созданных в оазисе больниц и амбулаторий было недостаточным. В то же время ситуация в медицинских учреждениях находится в плачевном состоянии, а в связи с финансовой ситуацией в стране стало фактом, что их материально-техническая база очень низкая. В этот период большое внимание уделялось созданию в оазисе культурно-просветительских центров. Это клубы, красные чайные, театры, музеи, агитпункты, библиотеки и другие места, где пропагандировалась современная культура. При этом идеологические и идеологические цели Советского государства отдавались приоритету в создании культурно-просветительских учреждений. Мы видим, что они в основном использовались для распространения «социалистической» культуры. Заключение состоит в исследовании жизни бывшего Советского Союза в 1925-1941 годах на основе историографии социальных, экономических и культурных процессов.

Ключевые слова. Сурхан, оазис, Совет, власт, земля и вода, «Хаудак», «Учкизил», нефт, рудники, Джаркурган, Ангор, раён, селское хозяйство, ферма, компания, бедняк.

HISTORICITY OF SOCIAL, ECONOMIC AND CULTURAL PROCESSES OF SURKHAN OASIS (1925 - 1941 - years)

Annotation: This article is devoted to the history of the social, economic and cultural processes of the Surkhan oasis, in which the policy of the Soviet era in the Surkhan oasis of 1925-1941, education, health care, the role of women and girls in society, in the social life of the population, also the activities of the population in state farms and collective farms, which have a key place in the economic life of the oasis, are reflected. In the activities of representatives of the cultural sphere, it is aimed to reveal the significant negative consequences of the Soviet ideology in the life of the population based on the methods of historical objectivity and historical sequence. After analyzing the historical process, during this period, the inhabitants of Surkhan oasis experienced a complicated political, socio-economic period. The Soviet state, in restoring the economy of the oasis, first of all paid attention to agriculture. The planned Soviet policy was based on violence, and the idea of dividing the population into classes was developed. According to him, new expressions such as "kulak", "rich", "priest", "intellectual", "poor", "batrak" appeared in the country. In order to preserve the health of the population in the Surkhan oasis, the Soviet government carried out a number of practical works. However, the number of hospitals and outpatient clinics established in the oasis was insufficient. At the same time, the situation in the medical institutions is in a sad state, and due to the financial situation in the country, it has become a fact that their material and technical base is very low. During this period, great attention was paid to the establishment of cultural and educational centers in the oasis. These are clubs, red tea houses, theaters, museums, agitpoints, libraries and other places where modern culture was promoted. At

the same time, ideological and ideological goals of the Soviet state were given priority in the establishment of cultural and educational institutions. We can see that they were mainly used to spread the "socialist" culture. The conclusion consists of researching the life of the former Soviet Union in 1925-1941 based on the historiography of social, economic and cultural processes.

Keywords. Surkhan, oasis, Soviet, authority, land and water, "Khaudak", "Uchkizil", oil, mines, Jarkurgan, Angor, district, agriculture, farm, company, poor.

KIRISH. Jahondagi globallashuv davrida iqtisodiy, ijtimoiy hamda madaniy jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikda o‘sib bormoqda. Iqtisodiy jihatdan rivojlanish ijtimoiy va madaniy hayotga o‘zining ta’sirini sezilarli darajada ko‘rsatdi. Shu bilan birgalikda, dunyo mamlakatlari aholisining ijtimoiy holati va madaniy an’analarini kuchaytirishga urg‘u berildi. Mazkur ishlarning samarasi sifatida insoniyatning iqtisodiy hayotida ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganini kuzatish mumkin.

Dunyoning etakchi oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida tarixda sodir bo‘lgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarni o‘rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu ilmiy ishlar ayrim hollarda mazkur uch sohani birgalikda qamrab olgan holda tahlil etish bilan bog‘lanadi. So‘nggi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarni bir-biridan alohida o‘rganib, tadqiqot so‘ngida ularni o‘zaro taqqoslash uslubi keng rivoj topdi.

Bugungi kundagi islohotlar mohiyatini anglash uchun bosib o‘tilgan tarixiy taraqqiyot yo‘lini chuqur tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, sovet davrida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish xususiyatlarini o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, 1925–1941-yillar tarixini o‘rganish orqali ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini bugungi kun nuqtayi nazaridan talqin etish zarur. Bundan tashqari, mazkur davr ayniqsa Surxon vohasi uchun achinarli va og‘ir kechganligini yangi manbalar va sovet davrida yaratilgan asarlarni tanqidiy asosda o‘rganish mavzuning naqadar dolzarb ekanligidan dalolat beradi. Prezident Sh. Mirziyoyevning “...Surxondaryo viloyati o‘zining iqtisodiy salohiyati, muhim geografik o‘rni, tabiiy imkoniyatlari bilan mamlakatimiz taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega”[1, 279], – degan fikrlari hududning yaqin o‘tmishdagi tarixining xolis talqinidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 9-noyabrdagi 382-sonli “Surxondaryo viloyatida dehqon xo‘jaliklarining imkoniyatlaridan samarali foydalanishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 9-noyabrdagi, shuningdek, mazkur yo‘nalishga taalluqli me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi.

1925 – 1941-yillarda Surxon vohasida ro‘y bergan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy jarayonlar tahlili asosida hududdagi ziddiyatli o‘zgarishlar mohiyati va oqibatlarini ochib berishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Mavzuning tarixshunosligi jihatidan tahlili shundan dalolat beradiki, mazkur muammoni sovet davri tarixshunosligidagi, ayniqsa 1925 – 1941-yillarda Surxon vohasidagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar tarixi bo‘yicha ma’lum miqdordagi tadqiqotlar mavjud. O‘zbekiston

Respublikasida mazkur muammolarga oid nashr etilgan adabiyotlarni davr jihatidan ikki guruhga bo‘lish mumkin:

Birinchi guruhga sovet hokimiyati yillarida O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixi masalalariga doir yoritilgan tadqiqotlar kiradi.

Ushbu davrda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy qurilish masalalariga oid yaratilgan ishlarda Surxon vohasi tarixiga oid materiallar ham uchraydi. Xususan, o‘sha davrda yaratilgan asarlarda Surxon vohasining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy tarixini o‘rganish maqsad qilib qo‘yilmagan bo‘lsa-da, ushbu mavzuning ayrim masalalari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilib o‘tiladi. Masalan, R.X.Aminova, S.K.Ziyadullayev, A.M.Davidovlarning asarlarida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish masalalari batafsil yoritilib, Surxon vohasi qishloq xo‘jaligiga doir masalalar ma’lum darajada bo‘lsa-da tahlil qilinib, o‘rganilgan[2, 45].

G.R.Rizayev, L.Z.Kunakova A.Yu.Ibragimova, L.Z.Allamurodov, A.M.Давыдов va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida sovet hukumatining dastlabki yillaridagi agrar islohotlar o‘sha davrda o‘tkazilgan yyer-suv islohoti masalalari yoritilib, xususan, Surxondaryo okrugida xususiy erlarni tugatish to‘g‘risidagi dekretni amalga oshirish uchun “kurash” haqida qisqacha ma’lumotlar berilib, vohaning hududiy er tuzilishi va maydonlari haqida umumiy xulosalar berib o‘tilgan.

“Индустриалное развитие Бухарской области за годы советской власти” asarida mualliflar faqat Buxoro viloyati haqida ma’lumot bilan cheklangan Surxon vohasi Buxoro okrugi tarkibida bo‘lgan yillarini ham misol tariqasida ta’kidlab o‘tilmagan[3].

A.M.Aminovning tahriri ostida chop etilgan “Экономическая история советского Узбекистана (1917-1965 гг.)” nomli kitobida qishloq xo‘jaligi va sanoatning rivoji xususida ayrim fikrlarini bayon qilingan. Lekin, Surxon vohasi bo‘yicha kam ma’lumot berilgan[4]. “Очерки истории Кашкадаринской и Сурхандаринской областей Узбекистана советского периода (1917-1932 гг.)” K.Z.Jitov umumiy tahriri ostida chop etilgan ushbu asarda, vohaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti haqida bayon qilingan bo‘lib, o‘sha davrni rivojlanish va yaxshilanish davri deb baholab, mahalliy boylar va oz miqdorda erga ega bo‘lgan o‘rtahol kishilarni ham boylar safiga qo‘shib o‘rgangan, ularni sovet hukumatining dushmani sifatida targ‘ib qilgan[5].

Sh.N.O‘lmasboyevning “Sovet O‘zbekistonining sanoati rivojlanishi” nomli asarida ham biz tadqiq qilayotgan davr haqida ma’lumotlar berilib, vohaning neft sanoati xususida biroz to‘xtalib, uning 1935 – 1937-yillardagi “Xaudak”, “Uchqizil” neft konlari va uning holati haqida ma’lumot berib o‘tgan[6, 101]. I.R.Mullajonov “O‘zbekiston SSR aholisi va xalqi” nomli kitobida sovet hukumatining aholini ro‘yxatga olishi natijasida qancha millat va elat bor ekanligi aniqlanganligi bayon qilinib, Surxon vohasi xususida faqatgini jadvalda keltirilgan holatni ko‘rish mumkin[7, 145].

T.Suvonov, R.K.Saparovlarning O‘zbekistonda ilk bor tashkil qilingan sovxozning yubileyi munosabati bilan Surxondaryo viloyati “Xazarbog‘” sovxozi tarixi 1990-yilda 60 yillik yubiley tantanasiga bag‘ishlangan “Istiqbolli yo‘llar” deb nomlangan ushbu risolada “Hazarbog‘” savxozining tarixi haqida qisqa ma’lumot berib, asosan sovxozning mehnatkashlari hayoti haqida bayon qilinadi[8].

Mustaqillik yillarida Surxon vohasi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlar ham o‘rganilgan bo‘lib, bu ilmiy adabiyotlarda Z.Mirzayev, E.Qobulov, Jaloliddin Mirzo, M.Azimov, N.Ismoilov, S.Tursunov I.T.Botirovlarning tadqiqotlarida[9, 12] Surxon vohasining qadimgi davrdan to mustaqillik yillarini ham tadqiq qilinib biz o‘rganayotgan davr tarixini ham o‘rganishga harakat qilingan.

Bundan tashqari Surxondaryo viloyat matbuoti yubileyiga bag‘ishlab badiiy

publistik nashrlar ham chiqarilgan. 2002-yilda A.Xidirov[10, 32] muharrirligida Denov "Chag'aniyon" gazetasi va bosmaxananing 70 yilligini munosib nishonlash maqsadida Saodatli karvon nomli risola nashrdan chiqarildi, mazkur risolada Denov tumanining nashriyoti va bosmaxonasi tarixi va unda mehnat qilgan jurnalistlar haqida ma'lumot keltiriladi.

J.Mirzayev tomonidan yozilgan maqolada Surxondaryoda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyati unda paykal xo'jaligining ustuvorligi borasida xulosaga keladi. Surxondaryoda mahalliy hokimiyat tomonidan paykallarni sovetlashtirish shiori o'rtaga tashlanadi[11, 126]. Paykal xo'jalik yuritish uslubi jarayonini o'rganar ekan, J.Z.Mirzayev undagi saylovlar tizimi asosida demokratiyaning milliy usuli haqida xulosa qiladi[12, 120]. S.Tursunov, A.To'xtaevlarning "Jarqo'rg'on"[13], S.Tursunov, Q.Rashidov "Boysun"[14], 2019-yilda qayta nashr qilingan "Jarqo'rg'on tarixidan lavhalar"[15], nomli monografiyalarda biz o'rganayotgan davr 1925 – 1941-yillardagi voqeliklarni ham yoritishga harakat qilgan.

Lekin, mustaqillik davrida chop etilgan adabiyotlar bilan bir-birini takrorlash hollari uchrab turadi. A.Ro'zievning "Surxondaryo viloyati[16]" kitobida vohaning geografik o'rni va chegaralari, xalq xo'jaligi, dehqonchilik, sanoat, transport kommunikatsiyalari, maorif va madaniyat, sog'liqni saqlash masalalari haqida o'z fikrlarini bayon qilgan bo'lib, biz o'rganayotgan davr haqida juda kam ma'lumot berilganligi bilan farqlanadi.

Mavjud adabiyotlar va tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, biz o'rgangan davr alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganilmagan. Muammoning o'rganilmaganligi, uning hozirgi kunda mamlakatimiz uchun nafaqat ilmiy-nazariy va amaliy, balki ijtimoiy ahamiyati ham dolzarbligini e'tiborga olib, uni o'rganishga jazm qildik.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Surxon vohasi tarixiga nazar solar ekanmiz, XX asr boshlarida ham uning Buxoro amirligining chekka hududi va iqtisodiy hayotida qishloq xo'jaligi etakchi o'rin tutganligiga guvoh bo'lamiz. Sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng ham voha uezd[17, 624] maqomida qolib, 1925-yildagina okrugga aylantirilgan. Surxondaryo okrugining umumiy hududi 19.607 kv kmni tashkil qilgan. Voha aholisi 265.000 kishidan iborat bo'lib, shundan 252.000 nafari qishloq va 13.000 nafari shahar aholisi edi. Okrugda jami 48.000 xo'jalik hisobga olingan[18].

1925-yilda yyer-suv islohoti o'tkazila boshlandi[19]. Surxondaryo okrugida ham zudlik bilan yer-suv islohotini olib borish talab qilindi[20]. Okrugda 1928 – 1929-yillarda olib borilgan yer-suv islohoti natijasida boy va ulamolarning 531 ta xo'jaligi tugatildi.

O'tkazilgan islohotdan so'ng endilikda "yakka xo'jalik" bo'lib, paxtachilik bilan shug'ullanish samara bermasligini ma'lum bo'ldi. 1928-yilda vohada jamoa xo'jaliklarini tashkil qilish, ya'ni jamoalashtirish siyosati ilgari surildi.

Dastlabki davrda tashkil qilingan jamoa xo'jaliklarining mahalliy aholidan olgan ish qurollari talabga javob bermaganligi sababli tumanlarda mavjud ish qurollarini ro'yxatdan o'tkazish (inventarizatsiya) joriy qilindi[21]. Buning natijasida Boysunda 3936 rub., Sherobodda 2101 rub., Pattakesarda 1700 rub., Jarqo'rg'onda 1000 rub., Sariosiyoda 1650 rub., Denovda 1600 rub., okrug bo'yicha jami 19989 rubl qiymatga ega bo'lgan qishloq xo'jalik asbob-uskunalari borligi aniqlandi. O'zbekiston hunarmandchilik kengashi ta'minoti keyingi yilning ekish mavsumiga qadar 18000 rubllik mahsulot etkazib berishi haqidagi shartnoma imzolandi.

Kolxozlashtirish jarayoniga xotin-qizlar ham faol jalb qilingan bo'lib, kolxoz tashkil

qilishda xotin-qizlarga katta kuch sifatida qaralgan edi[22]. Shu asosda, Sherobod tumanining xotin-qizlari paxta etishtirish rejasini bajarishda o‘zlarining kuch-g‘ayratlarini ayamasliklarini keng targ‘ib qildilar.

Bu davrda sovet hukumati “25 mingchilar” degan harakatni ham o‘ylab topdi. Asosan “stalincha” ma’muriyatning qishloqlarda ommaviy jamoalashtirishni tezlatishga intilishi bunga sabab bo‘ldi. Vohada paxta ekishni yaxshi yo‘lga qo‘yish maqsadida “O‘zpaxtakengashi” tashkiloti kadrlar tayyorlash kurslarida o‘qishni joriy qildi. Termiz shahridan tayyorlov kursiga 300 kishi talab qilingan bo‘lsa, haqiqatda esa 167 kishi to‘plangan. Aslida, kurs tashkil qilish uchun reja bo‘yicha kamida 215 kishi yig‘ilgan bo‘lishi lozim edi. Mazkur kurslarni har bir okrugning markazida tashkil qilish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bunday kurslar dastlab 1930-yilning 1-yanvarida Termiz shahrida tashkil topdi[23]. Vohada sovet tuzumi to‘liq o‘rnatilganidan keyin xotin-qizlar sanoat tarmoqlaridagi (hunarmandchilik artellari) ishlarga jalb qilina boshlandi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida iqtisodiy tarmoqlarni rivojlantirishda aholidan yig‘ib olinadigan soliq muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababli, ekilgan mahsulot turiga va ekin maydonining holatidan kelib chiqib soliqlar joriy qilina boshlandi. 1927-yil O‘zSSR Xalq Komissariatining soliq boshqarmasi Surxondaryo okrug ijroiya qo‘mitasiga maxsus qarorini yubordi[24]. Qarorda 1927 – 1928-yillarda qishloq xo‘jaligida joriy qilinishi kerak bo‘lgan soliqlarning eng past darajasi hamda daromadga nisbatan soliqlar hisobga olingan bo‘lib, hududlarning taqsimlanishiga oid yo‘l-yo‘riqlar alohida ko‘rsatib o‘tilgan edi. Soliqlar joriy qilingan davrdan boshlab qattiq rejim asosida alohida agropunktlarga ajratilgan asosiy ekin turlari, lalmi erlar, sug‘orma erlar va chorva mollari, shu bilan birga ikkinchi darajali qishloq xo‘jalik mahsulotlari – tomorqalar, uzumzorlar, tamaki maydonlari, sholi etishtirish va qolgan ekinlarga qarab soliqlarni yig‘ish talab qilindi.

Respublika aholisining salomatligini muhofaza qilish jarayonlari bu davrda bir xilda kechmadi. 1924-yilda hozirgi O‘zbekiston hududida 2135 o‘ringa mo‘ljallangan 53 ta kasalxona ishlab turar edi. Shuningdek, yana 185 ta ambulatoriya va feldsherlik punktlari ham faoliyat ko‘rsatgan. Biroq, ular, asosan, shaharlarda joylashganligi bois shahar aholisiga xizmat qilar, qishloq aholisi esa aslida barqaror tibbiy xizmat ko‘rsatish doirasidan chetda qolgan edi[25].

Dastlabki davrda vohada tibbiy xizmatning yo‘lga qo‘yilishi mahalliy aholining sog‘ligini saqlash uchun emas, balki ko‘proq bu erda ish olib borgan evropaliklar hamda harbiylar salomatligini nazorat qilish uchun yo‘lga qo‘yilgan edi. Okrug sog‘liqni saqlash bo‘limi mudiri lavozimida faoliyat olib borgan A.Shevalovichning ma’ruzasidan shuni bilish mumkinki, okrugdagi birinchi kasalxona 10 o‘rinli bo‘lib, 1924-yil may oyida tashkil topgan. Sog‘liqni saqlash bo‘limida 1925 – 1926-yillarda bor-yo‘g‘i 7 kishi faoliyat yuritgan edi[26].

Dastlabki paytlarda sovet maktablarida faqat dehqon va batrak aholi vakillari o‘qishi ko‘zda tutilgan. Biroq, maktablarda, asosan, yevropa millatiga mansub aholining farzandlari tahsil olganlar. Fikrimizning isboti 1925 – 1926-yillarga tegishli statistik ma’lumotlarda o‘quvchi o‘g‘il bolalarning 1,6 foizini o‘zbeklar, 2,9 foizini tojiklar, 75,7 foizini rus millatiga mansub bolalar tashkil qilgan. Qizlar orasida esa 0,1 foizini o‘zbeklar, 0,1 foizini tojiklar, 54,2 foizini rus millatiga mansub o‘quvchilar tashkil etgan[27].

XULOSA. 1925 – 1941-yillar oralig‘ida Surxon vohasi aholisi murakkab siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy davrni o‘z boshidan kechirgan. Sovet davlati voha iqtisodiyotini tiklashda, eng avvalo, qishloq xo‘jaligiga e’tibor qaratdi. Bunga qadar qishloq xo‘jaligi ishlari butkul yirik mulkdorlar qo‘lida bo‘lib, sovet davlati jamiyatda mulkdorlar sinfini

yo'qotish kerak, degan g'oyani ilgari surdi va uni amalga oshirishga harakat qildi. Surxondaryo iqtisodiyotida hunarmandchilik ishlab chiqarishi ustun bo'lib turdi. Surxondaryo okrugi savdo-sanoatini rivojlantirish maqsadida vohaning ichki bozorlariga ham e'tibor qaratilib, savdo aloqalari kengaytirildi.

Surxon vohasida sovet ta'lim tizimini shakllantirishga harakat qilindi, yangi maktablar, kattalar uchun savodxonlik maktablari, turli mutaxassis kadrlarni tayyorlaydigan kurslar tashkil qilindi. Ammo maktablarni o'qituvchilar hamda o'quv jihozlari bilan ta'minlash talab darajasida emas edi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – Б. 279.
2. Р.Х.Аминова Аграрные преобразования в Узбекистане в годы перехода советского государства к НЭПу. – Ташкент: «Наука»,1965. – 347 с.;Шу муаллиф.Аграрные преоброзования в Узбекистане накануне сплошной коллективизации (1925-1929 гг). – Ташкент: «Фан»,1969. – 469 с;. Шу муаллиф.Ўзбекистонда совет ҳокимиятининг аграр сиёсати ва уни сохталаштирувчилар. – Тошкент:"Ўзбекистон",1972. –180 б. Ленинча кооператив планнинг тантанаси. Ўзбекистон ССР. "Фан" –Т., 1974 й. 53 б.; Осуществление коллективизации в Узбекистане (1929-1932 гг). Издательство «Фан» Узбекской ССР –Т., 1977 г. 312 с.
3. Номозов Д.Н, Сааков В.Г. Индустриальное развитие Бухарской области за годы советской власти. – Т., "Фан" 1974.
4. Экономическая история советского Узбекистана. Ответственные редактор Аминов А.М. Издательство Фан Узбекской ССР – Т., 1966 г. 370 с.; Вопросы истории народного хозяйства Узбекистана. Ответственный редактор А.М.Аминов Т., 1965 г.; Давыдов А.М. Земельный фонд Узбекской ССР и его использование – Т: Фан., 1971- 356 с.
5. Очерки истории Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей Узбекистана советского периода (1917-1932 г г.) Ответственный редактор Житов К.З. Издательство Фан. Узбекской ССР Т., 1968
6. Ульмасбаев Ш.Н. Промышленное развитие советского Узбекистана – Т ., 1958. – 244 ст. Ульмасбаев Ш. Н. Промышленное развитие Советского Узбекистана. Ист.-экон. очерк. - Ташкент : Госиздат УзССР, 1958. - 244 с.
7. Мулляджанов И.Р. Народонаселение Узбекской ССР (социально-экономический очерк) – Ташкент:Узбекистан – 1967. – 231 ст.
8. Т.Сувонов, Р.К.Сапаров "Истиқболли йўллар" Денов. 1990 й.
9. З.Мирзаев., Қобулов Э. Сурхондарёда пахтачилик ва Термиз пахта тозалаш заводи тарихи. – Термиз: Жайҳун,1996; Қобулов Э. Сурхондарё саноатининг илк одимлари. – Термиз: Жайхун, 1993; Жалолиддин. Мирзо. Термиз тарихи. –Т ., Шарқ, 2001. М.Азимов. Термиз тарихи. – Насаф. 2001 Турсунов С, Қобулов. Э ва бошқалар. Сурхондарё тарихи –Т ., Шарқ, 2004. И.Т.Ботиров Сурхондарё вилояти ўлкашунослик музейи тарихи. – Т., "Фан", 2011 й 67 б. Н.Исмоилов. Денов Таронаси. – Т., "Наврўз" 1995 й.
10. А.Хидиров мухарирлигида Саодатли карвон номли бадиий публистик нашр. – Денов., 2002 й, 142 бет.
11. профессор ўқитувчиларининг илмий назарий конференцияси материаллари.- Тошкент: «Университет», 1999.126-132 бетлар.
12. Мирзаев Ж.З. Демократиянинг миллий негизлари: тарихий анъаналардан умуминсоний тамойилларга.Баркамол инсон тарбияси. Термиз Давлат университети

ижтимоий фанлар факультети профессор-ўқитувчиларининг илмий-назарий мақолалар тўплами. Термиз, 2001.120-125б.

13. Турсунов. С. Тўхтаев. А Жарқўрғон. – Т., Фан, 2008.
14. Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун – Тошкент: Академнашр,2011.
15. С.Турсунов А.Тўхтаевлар З.Аннаеваларнинг Жарқўрғон тарихидан лавҳалар. – Т., "ЯНГИ НАШР" 2019 й.
16. Рўзиев А. Сурхондарё вилояти. –Т ., Жайхун, 1996.
17. Уезд – районлаштиришдан илгари СССРда маъмурий-ҳудудий бўлинишлардан бири. – Т.: УзСЭ, 1984. – С. 624.
18. O'z MA, R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2393-ish, 30-varaq.
19. Lenin bayrog'i. – 1967. – 20 dekabr.
20. O'z MA, R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 4040-ish, 51 varaq.
21. Surxondaryo viloyati davlat arxivi, 91-jamg'arma, 1-ro'yxat, 48-ish, 221-varaq.
22. O'z MA, R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 632-ish, 2-varaq.
23. O'z MA, R-86-jamg'arma, 10-ro'yxat, 11-ish, 90-varaq.
24. O'z MA, R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3963-ish, 101-varaq.
25. O'zbekistonning yangi tarixi ikkinchi kitob O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida. – T.: Sharq, 2000. – B. 369.
26. O'z MA, R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2393-ish, 99-varaq.
27. O'z MA, R-86-jamg'arma, 1-ro'yxat, 3088-ish, 153-varaq.